

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2022- yilning IV choragida Davlat statistika ishlari dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida Boshqarma boshlig‘i B. Maxmadaliyevning**

**AXBOROTI**

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i B. Maxmadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 22- yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga doir Davlat Dasturi” doirasida tizim oldiga belgilab berilgan.

Topshiriqlarni so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta’minalash borasida 2022- yilning IV choragida amalga oshirilgan ishlari hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, «2022- yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi» doirasida boshqarma va tuman, shahar statistika bo‘limlari tomonidan 2022- yilning IV - choragida amalga oshirilgan ishlari, pirovardida ishlab chiqilgan tahvilay-statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 49520,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o‘sdi.

Viloyat korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylari davomida 22814,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 110,5 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 33 384,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,7 % ga yetdi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15945,8 mlrd. so‘mni, 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 114,1 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 20504,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 547,5 mln. AQSh dollarini, jumladan eksport – 303,4 mln. AQSh dollarini va import – 244,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra viloyat bo‘yicha doimiy aholi soni 3 482,5 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 74,3 ming kishiga yoki 2,2 % ga o‘sdi.

Xususan, 2022- yil uchun Statistika dasturiga muvofiq, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida jami 341 ta statistika ishlari belgilangan hajm va muddatlarda bajarildi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar tayyorlanib, viloyat hokimligi, viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish boshqarmasi hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq, bajarilgan ishlar natijalariga ko‘ra axborotnomalar va pressrelizlar ko‘rinishida shakllantirilgan ochiq statistika ma’lumotlari ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e’tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida 1895 ta, Facebook sahifasida 712 ta tahilliy-statistik ma’lumotlar yangiliklar ko‘rinishida e’lon qilindi, infografika roliklari boshqarmaning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi.

Shuningdek, 35 ta infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid 112 a lavhalar «Qashqadaryo», «Nasaf» telekanallarida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda. «Qashqadaryo», «Xazina», «Voqif» va boshqa nashrlarda statistik ko‘rsatkichlar aks etgan 61 dan ortiq materiallar chop etildi.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining «Rasmiy statistika» bo‘limida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo‘nalishlari bo‘yicha 224 ta statistika ma’lumotlari to‘plamlari e’lon qilindi.

Statistika ma’lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi sub’ektlar o‘rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida 192 ta seminarlar, 384 ta «Ochiq eshiklar kuni» tadbirlari o‘tkazildi, 4620 dan ortiq bukletlar tarqatildi va 245 marotaba ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.